

INSON FALSAFASINING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI (FALSAFAVIY ANTROPOLOGIYA)

Jovliyeva Sultonposhsha

Imomqulova Madina

Shahrisabz davlat pedagogika Instituti tillar fakulteti

1-kurs 2-24 guruh talabalari

Email:Jovliyevasultonposhsha@gmail.com

Email:madinaimomqulova70p550db@

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15321057>

Anotatsiya

Ushbu maqolada inson falsafasi va falsafiy antropologiya haqida so'z yuritiladi. Inson falsafasi, insonning mavjudligi, mohiyati, maqsadi va uning dunyo bilan munosabati haqidagi asosiy savollarni o'rganadi. Bu yo'nalish nafaqat insonning biologik jihatlarini, balki uning ma'naviy, axloqiy va intellektual tomonlarini ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maks Sheler, Filosof, Estetika, Etika, Tafakkur, Aristotel, Platon, Mantiq, Kant, Suqrot, Demokrit,

Аннотация

В данной статье рассматриваются философия человека и философская антропология. Философия человека исследует основные вопросы существования, сущности, цели человека и его отношения с миром. Это направление изучает не только биологические аспекты человека, но и его духовные, этические и интеллектуальные стороны.

Ключевые слова: Макс Шелер, философ, эстетика, этика, мышление, Аристотель, Платон, логика, Кант, Сократ, Демокрит.

Abstract

This article discusses philosophy of human beings and philosophical anthropology. The philosophy of human beings explores the fundamental questions of human existence, essence, purpose, and its relationship with the world. This field examines not only the biological aspects of humans but also their spiritual, ethical, and intellectual dimensions.

Keywords: Max Scheler, Philosopher, Aesthetics, Ethics, Thinking, Aristotle, Plato, Logic, Kant, Socrates, Democritus.

Kirish: Inson borlig'i tabiiy rivojlanishning butunlay yangi, yuqoriroq bosqichi ham tegishli va uning tabiiy jismoniy, biologik asosi hisoblanadi. Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi «jon» va «ong» tushunchalarining tahliliga alohida etibor qaratilgan edi. Suqrotning shogirdi Aflotun insonning ruhi o'lmaydi, u har gal yangi tanaga ko'chib o'tadi,




deb tahmin qilgan edi. Insonning o'zini o'rab turgan atrof dunyoni o'rganishga urinishi bu ruhning tanga korguniga qadar mushohada etgan abadiy g'oyalar olami haqidagi xotiralardir. Aflotun uchun inson ideali donishmand faylasuf bo'lib uning ruhi ko'p sayr qilgan va shu sabali uning bilimlari eng to'g'ri va qimmatlidir. Bunday komil faylasufi Arastu „O'zini tafakkur etuvchi“ deb atalgan edi. Inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi antik antik materialistik Demokrit, Epikur, Lukretsiy Kar va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning qarashlariga ko'ra inson hayotining maqsadi ongli lazatlanish azob uqubatlarga chap berish ruhning sokin vat inch holatga erishishdir. Shu sabali ular falasfaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatishdan iborat deb hisoblaganlar. Ularning fikricha. Jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o'limiga mahkum, tana halokatga uchraganda so'ng atomlar yemiriladi. Inson o'limidan qo'rqqanligi kerak, zero toki u hayot ekan o'lim yo'q, o'lim kelganda esa inson yo'q bo'ladi. Umuman olganda antik falsafa „Inson nima “ degan savolga javob bermadi, balki ana shu kuntartibga qo'ydi.[1]

Tahlil va natijalar. Ilmiy falsafa esa tabiatning mavjudligi insonga, uning ongi va sezgisiga bog'liq emas, deb uqtiradi. O'tmishda Yer shunday bir holatda boiganki, unda o'zining sezgilari va ongiga ega boigan inson u yoqda tursin, hatto boshqa har qanday jonli mavjudotlarning ham yashashi uchun hech bir imkoniyat boimagan. Yer, Quyosh sistemasi, umuman, tabiat har qanday ongdan tashqarida va unga bog'liq boimagan holda mavjuddir. Kishi ongi tabiat taraqqiyotining faqat muayyan bosqichi-dagina uning mahsuli sifatida vujudga kelgan.[2] Ongdan tashqarida va unga bog'liq boimagan holda mavjud boigan tabiatning na boshi, na oxiri, na ibtidosi va na intixosi bor. Hozirgi zamon fanlari olamning, tabiatning cheksiz, benihoyaligi to'g'risidagi yangidan-yangi dalillar bermoqda. Fan sohasidagi yutuqlarning ko'rsatishicha, bizning galaTabiat, butun moddiy olam doimiy harakatda, to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishdadir. Mavjudotdagi barcha jismlar Oy, Quyosh, sayyoralar, meteoritlar fazoda doimiy ravishda harakatda. Tabiatning, materiyaning fazoda cheksiz va vaqtda abadiy bo'lgan tinimsiz harakati jarayonida ba'zi bir narsalar emiriladi, yangilari paydo bo'ladi. Tabiatning milion yillar davomidagi tadrijiy taraqqiyoti jarayonida jonsiz dunyodan jonli dunyo kelib chiqqan. Jonli dunyoning paydo bo'lishi tabiatning, materiyaning cheksiz koinotdagi taraqqiyotidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlardan biridir. Jonli materiya keyinroq yuz bergan hodisalar, uzoq davom etgan taraqqiyot samarasidir. Jonli tabiat ham jonsiz tabiat ham doimiy harakatdadir. Lekin harakat ulaming har ikkalasida ham biroz boshqacharoq shaklda amalga oshadi.[3] Hayot tabiat taraqqiyotining ma'lum

bosqichidagi ko'rinishidir. Jonli tabiat moddiy olamning kichik bir qismini tashkil etgani uchun unga xos xususiyatlarni jonsiz olamga mexanik ravishda yoyib bo'lmaydi. Ilmiy falsafa jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida o'tib bo'lmaydigan to'siq yo'q, deb ta'lim beradi. Ular bir-biridan sifat jihatdan farq qilishiga qaramay, bir-biri bilan bog'liq hamdir. Jonli tabiat abadiy mavjud bo'lgan emas, balki jonsiz tabiat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida, ma'lum obyektiv sharoitlar asosida vujudga kelgan. Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat asosida ham yagona moddiy substansiya - materiya yotadi. Demak, jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi

bog'lanish ulaming birligida yaqqol ko'rinadi. Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi moddiy birlik ulaming kimyoviy tarkibida ham juda aniq ko'rinadi. Odam organizmidagi kislorod, uglerod, oltingugurt, azot, kalsiy, fosfor, magniy, natriy, kaliy, xlor, temir singari elementlarni jonsiz tabiatda ham uchratamiz. Organizmlarni tashkil etuvchi oqsil tarkibida ham shunday elementlar bor. Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida umumiy tomonlardan tashqari ulaming har biriga xos bo'lgan farqli tomonlari ham mavjud. Jonli organizmlarning asosiy xususiyati shuki, ular tashqi muhit bilan modda almashinadi. Bu esa, materiyaning murakkab va yuqori shakllariga tegishli bo'lgan xususiyatdir. Inson tabiat farzandi sifatida paydo bo'lgan bo'lsada, lekin insonga xos deb e'tirof etilgan xususiyatlarning hammasiga u jamiyatda bevosita aralashish, ta'lim-tarbiya olish, mehnat qilish orqali erishdi. Mehnatning roli va ahamiyati, ayniqsa, ikki narsada kuchliroq seziladi. Birinchidan, inson ajdodlari organizmi mehnat ta'sirida biologik mavjudotga xos bo'lgan belgilardan ijtimoiy mazmunga xos tomonga o'zgara boshladi, Ikkinchidan, mehnat gapirish, aloqa o'rnatish, ijtimoiy tajriba orttirish, inson ongi, til va tafakkurining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ham asos bo'ldi. Odamning ongi ham o'zi kabi ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Insonga xos bo'lgan ong faqat mehnat jarayonida rivojlanadi. San'at, fan, madaniyat va texnika taraqqiyoti tarixi bizning barcha fikrlarimiz, g'oyalarimiz mehnat jarayonida tug'ilganligini va rivojlanib borganligini

ko'rsatib turibdi. Inson o'zining aql-idroki, fan va texnika yordamida oziqovqatning, qurilish materiallarining, kiyim-kechak uchun ishlatiladigan matolarning, sun'iy tolalarining tabiat yaratmagan yangidan-yangi turlarini ixtiro qildi va qilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri ijtimoiy taraqqiyot mobaynida hozirgi davrdagidek bo'lgan emas.[4] Hozirgi paytda insonning yashash maskanining tabiiy muhiti o'zgarmoqda. Bu muhit inson sivilizatsiyasining bir qismiga aylandi. Boshqacha aytganda, «ikkinchi tabiat» -



insoniyat madaniy dunyosi vujudga keltirildi, ya'ni shunday narsalar va jarayonlar vujudga keltirildiki, ulaming tabiatda tayyor holda iriavjud boiishi u yoqda tursin, hatto ular tabiatning o'z kuchlari ta'siri ostida ham paydo bo'la olmaydi. Bundan endiliqda tabiat o'z mavjudligining obyektiv xususiyatini yo'qotdi, degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Tabiat ilgarilari obyektiv va birlamchi boiganidek, hozir va bundan keyin ham shundayligicha qolaveradi. Kishilik jamiyati moddiy olamning, tabiatning ko'p ming yilli tadriji taraqqiyotining qonuniy mahsuiidir. U taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida, insonlar jamoasi kelib chiqqan davrda yuzaga kelgan. Demak, jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti inson ma'lum jamoaga birlashib mehnat qilgan, ishlab chiqarish qurollarini yaratgan, maium ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllangan davrdan boshlandi. Kishilaming moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi uchun muayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bogiaydigan, uning taraqqiyotiga maium darajada ta'sir ko'rsatadigan qismi tabiiy muhit deb ataladi. Yer va yer osti boyliklari, daryolar, iqlim va boshqa shu kabilar tabiiy muhitni tashkil etadi. Turli tarixiy sharoitlarda tabiiy sharoitlaming jamiyat taraqqiyotiga ta'siri aynan bir xil boigan emas. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar o'zlarini qurshab olgan tabiatga butunlay qaram boiganlar. Ular tabiatni emas, balki tabiat ulami o'ziga butunlay bo'ysundirgan. Chunki hali bu davrda fan, texnika o'smagan, madaniyat rivojlanmagan, mehnat qurollari oddiy boigan. Shuning uchun ham odamlaming hayoti tabiiy sharoitlar qulayligiga ko'p jihatdan bogiiq edi. Boshlangich davrda odamlar shuning uchun ham daryo bo'ylarida, tog' yonboshlarida, tuprogi serhosil joylarda, o'rmonlari va hayvonot dunyosi serob bo'lgan joylarda yashashga harakat qilganlar. Odam paydo boigan davrdan boshlab hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, uni batamom o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida inson faoliyati natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib boimas darajada o'zgartirib ketganligi bunga misol bo'la oladi. E'tirof etish kerakki, insonning o'z istiqbolini o'ylamay qilgan hatti-harakatlari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p narsalardan abadiy judo boidi. Kosmik changlar, issiqlik elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o'sib borishi, radiaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai boigan havo toqat qilib boimaydigan darajada ifloslanmoqda. Inson kamolotida did – fahm – farosat uyg'unligi Odatda, farosat tushunchasi estetik baxo bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib xolat, ko'ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, kamdan kam xollarda "farosatli kishi,

farosati bor, farosatli” degan so’zlarni ishlatamiz. Biroq. did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo’lib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – go’zallikka munosabat orqali namoyon bo’ladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. [5]

Xulosa. Inson falsafasi, insonning mohiyati, erkinligi, baxti va axloqiy qadriyatlarini o’rganish orqali, uning hayotdagi o’rni va maqsadini aniqlashga intiladi. Ushbu yo’nalish turli falsafiy maktablar va oqimlar tomonidan shakllangan bo’lib, har biri insonning ichki dunyosini, axloqiy masalalarini va jamiyat bilan aloqasini turlicha talqin qiladi. Inson falsafasi nafaqat nazariy g’oyalar bilan cheklanmay, balki amaliy hayotda insonning o’zini anglashida va jamiyatda erkin va mas’uliyatli yashashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, inson falsafasi nafaqat falsafiy bilimlarni, balki hayotiy qadriyatlarni ham shakllantiradi.

Foyadalanilgan adabiyotlar:

- 1.O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning “ Yuksak ma’naviyat-Yengilmas kuch” kitobi. Toshkent-2010. 112-bet.
- 2.J.Tulenov, G Tulenova, K Tulenova „Falsafa”
- 3.Sh .O.Madaeva „Falsafa” O’quv qo’llanma Toshkent -2019
- 4.Z.Davronov, N Shermuhamedova ,D Fayzixo’jayeva,M Nurmatova , B Husaino, M. Qahharova, A Sultanova „ Falsafa” Toshkent -2019.
5. Obid Haydarov, Jamoliddin Ostanov, Ozoda Sultanova „Falsafa” O’quv uslubiy qo’llanma. Samarqand-2022
6. M.A.Axmedova „Falsafa” Toshkent – 2018
7. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
8. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
- 9.Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go’zal Aralovna Ochilova, and Sitara Ayonovna Azamova."SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science.
- 10.Ayonovna, Azamova Sitara. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review.

11.Ayanovna Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

12.Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.